
SO'X TUMANIDA QARZDOR ALIMENT O'RNIGA UY BERDI



So'x tumanida qarzdor aliment o'rniga uy berdi

Byuroning So'x tuman bo'limi ish yurituvida FIB Rishton tumanlararo sudining 20.12.2020 yilgi qaroriga ko'ra, qarzdor B.M.dan undiruvchi Z.M. foydasiga 5 nafar farzandlarining moddiy ta'minoti uchun 1/2 qism miqdorda aliment undirish haqidagi ijro hujjati mavjud bo'lib, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga qonuniy huquq va majburiyatlari tushuntirilgan.

Joriy yilning 15 aprel kuni qarzdor undiruvchi bilan o'zaro kelishgan holda voyaga yetmagan 5 nafar farzandlarining moddiy ta'minoti uchun ularni 18 yoshga to'lguniga qadar to'lashi lozim bo'lgan 61.303.000 so'm aliment o'rniga So'x tumani, Gaznov MFY, Xamrox ko'chasida joylashgan honadonni undiruvchining nomiga rasmiylashtirib topshirgan va taraflar o'rtasidagi 15.04.2023 yil kungi kelishuvga asosan ijro hujjati tamomlandi.

MIB So'x tumani bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-17 17:38:12